

# **Farg'onadan Dubayga aviachiptalar \$103 dan**

**2022 12 Dekabr**

Joriy yilning 12-dekabridan boshlab "Uzbekistan Airways" AJ Farg'ona-Dubay-Farg'ona yo'nalishi bo'yicha aviaqatnovlar tariflarining darajasini kamaytirmoqda. Farg'ona-Dubay yo'nalishidagi aviachiptalar 103 AQSh dollaridan boshlanadi.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Farg'ona shahridan Dubayga parvozlarni haftaning seshanba va yakshanba kunlari amalga oshiradi.

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniya agentlaridan yoki [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) rasmiy saytidan 3% chegirma bilan xarid qilib olishingiz mumkin.